

XON DEVONINING BIR NUSXASI XUSUSIDA

Nuriddin Rahmonov

Qo‘qon DPI erkin tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada “Xon” taxallusi bilan ijod qilgan sahibdevon shoh va shoir Muhammad Alixonning devon nusxalaridan biri to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shoir devoni tarkibidagi janrlar, g‘azallarining vazn xususiyatlari haqida so‘z boradi. Xon devonidan tanlab olingan g‘azallar ilk marotaba ilmiy jamotchilikka taqdim etildi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, Amiriy, Nodira, Xon “Devoni Xon”, sahibdevon, qo‘lyozma, nusxa, devon tuzish tartibi, she‘riy to‘plam, g‘azal vazni, bahr, she‘riy janr

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается один из диванных копий сахибдевана-шаха и поэта Мухаммада Алихана, созданный под псевдонимом «Хан». Обсуждаются жанры книги поэта, весовые характеристики его газелей. Газели, отобранные с ханского дивана, впервые были представлены научной общественности.

Ключевые слова: Коканская литературная среда, Амирий, Надира, хан «Девони-хан», сахибдеван, рукопись, копия, порядок создания девана, поэтический сборник, вес газели, бахр, поэтический жанр

ABSTRACT

The article discusses one of the divan copies of the sahibdevan shah and poet Muhammad Alikhan, who created under the pseudonym "Khan". The genres of the poet's book, the weight characteristics of his ghazals are discussed. Ghazals selected from Khan's divan were presented to the scientific community for the first time.

Keywords: Kokan literary environment, Amiriy, Nadira, Khan "Devony Khan", sahibdevan, manuscript, copy, order of creating a devan, poetry collection, ghazal weight, bahr, poetic genre

Qo‘qon adabiy muhiti o‘zbek adabiyotiga ko‘plab sohibi devon shoirlarni yetishtirib bergan. Amiriy, Nodira, Uvaysiy, G‘oziy, Ma‘dan, Ravnaq, Nodir, Qoriy, Zoriy, Sadoyi, Muhsiniy, Muxayyir, Muqimiy, Firoqiy kabi shoirlar shular jumlasidandir. Devon tuzish hammaga ham nasib etmagan. Aksari sahibidevon

shoirilar o'z zamonasining ma'lum va mashhur shoirlari bo'lishgan. She'rlari xalq orasida sevib mutolaa qilingan.

Qo'qon xoni, adabiy muhit asoschisi va ulug' shoir Umarxon Amiriy va Qo'qon va she'riyat malikasi Mohlaroyim Nodiraning farzandi Muhammad Alixon (Ma'dalixon) ham "Xon" taxallusi bilan qalam tebratib, she'rlaridan devon tartib bergan.

Akademik Azizxon Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti" kitobida O'zRFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida qo'qonlik shoirlarning ham bir qator devonlari borligini ta'kidlab, shu qatorda Xon she'rlar to'plamini (№1808) ham sanaydi. [1.5]

Matnshunos olim Otabek Jo'raboyev ham "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 2017- yil 6- sonida e'lon qilingan "Xon adabiy merosiga doir" maqolasida Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida №1808 raqami ostida saqlanayotgan Xon devoni haqida kengroq ma'lumot beradi: "Ko'chirilgan joyi, kotibi va yili ma'lum emas. Yashil rangli fabrika qog'oziga qora siyoh bilan ravon nasta'liq xatida ko'chirilgan (taxminan XX asrning birinchi yarmi) bu manba kartatekasida "Devoni Xon Muhammad Alixon" deb yozilgan. Matnlar jadvalga olingan. Manba "Devoni xon" deb yuritilsa –da, Xon she'rlaridan ayrim namunalar devon tartibida berilgan, xolos. O'zbek tilida 48 ta g'azal va 1 muxammas berilgan." [2.125]

Filologiya fanlari doktori, professor Hamidullo Boltaboev shoir haqida fikr yuritar ekan shunday deydi: "Amir Umarxondan keyin rasman uning yosh o'g'li Muhammad Alixon (v.1842) podshoh bo'lsa-da, qariyb 20 yilga yaqin Qo'qon xonligini boshqargan (1822-1842). Muhammad Alixon ham sohibi devon shoir bo'lib, — "Xon" taxallusi bilan she'rlar yozgan va milliy adabiyot tarixidan o'rin olgan ijodkordir." [3.256]

Ko'rinadiki, ba'zi olimlar Xonni sohibdevon shoir deb, ba'zilar esa to'plam tuzgan ijodkor sifatida baholashadi. Ma'lumki, devon biror shoirning lirik janrga mansub barcha she'rlarini o'z ichiga olgan to'plam bo'lib, she'rlar qofiya va radifning oxirgi harfiga qarab alifbo tartibida joylashtiriladi. [4.35]

1808 raqamli qo'lyozmada Xonning 49 she'ri arab alifbosi tartibida berilgan. Ammo 12 ta arab harflaridan foydalanilgan. "Nun" (ن) harfi bilan nihoyalanuvchi g'azallar - 19 dona, notugal muhammas -1 dona. "Re" (ر) harfi bilan nihoyalanuvchi g'azallar 10 donani tashkil etadi. Qolgan harflar bilan nihoyalanuvchi she'rlar bir yoki ikki donadan iborat:

| № | Alifbo tartibi | She'rlar soni |
|------------------------|---|-----------------------------------|
| 1 | “Alif” (ا) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 1 dona g‘azal |
| 2 | “Be” (ب) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 1 dona g‘azal |
| 3 | “Te” (ت) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 1 dona g‘azal |
| 4 | “Jim” (ج) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 2 dona g‘azal |
| 5 | “Chim” (چ) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 1 dona g‘azal |
| 6 | “Re” (ر) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 10 dona g‘azal |
| 7 | “Shin” (ش) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 2 dona g‘azal |
| 8 | “Gof” (گ) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 1 dona g‘azal |
| 9 | “Lom” (ل) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 1 dona g‘azal |
| 10 | “Mim” (م) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 7 dona g‘azal |
| 11 | “Nun” (ن) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 19 dona g‘azal 1 dona muxammas |
| 12 | “G‘ayn” (غ) harfi bilan nihoyalanuvchi g‘azal | 2 dona g‘azal |
| Jami: 12 ta arab harfi | | 49 dona |

Bundan tashqari Xonning O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi fondidagi qo‘lyozmada 36 ta (157- raqamli qo‘lyozma), Rossiya FA Sankt-Peterburg Sharq qo‘yozmalari instituti fondi saqlanayotgan №D400 raqamli qo‘lyozmada 20 turkiy g‘azali, va 2 muxammasi, 1 forscha ruboiysi va 2 fardi o‘rin olgan. Ayrim bayoz va tazkiralarga ham Xon she‘rlari kiritilgan.

Shoirning 1808 raqamli qo‘lyozma tarkibidagi she‘rlar aruzning besh mashhur bahrlarida yozilgan. Ramal (23 ta she‘r) va hazaj (21 ta she‘r) bahrlarida yozilgan g‘azallar salmog‘i yuqori:

| № | G‘azal vaznlari | She'rlar soni |
|-----------------|-----------------|---------------|
| 1 | Ramal bahri | 23 dona |
| 2 | Hazaj bahri | 21 dona |
| 3 | Muzore‘ bahri | 3 dona |
| 4 | Mujtass | 1 dona |
| 5 | Mutaqorib | 1 dona |
| Jami: 5 ta bahr | | 49 dona |

Aytish mumkinki, shoirning adabiyot tarixidagi o‘rni qancha she‘r yozgani bilan emas, qanday yozgani bilan belgilanadi. Xon she‘riyatini tadqiq etish, ular qatiga yashiringan ma‘nolarni kashf etish maroqli bir yumushdir. Buning natijasida yana bir mahoratli shoirning adabiyotimiz tarixidagi o‘rni o‘zining munosib bahosini oladi.

Xon devonidan tanlab olingan quyidagi gʻazallar ilk marotaba ilmiy jamotchilikka taqdim etilmoqda.

To tushubdur qarshu ul ruxsori behamtoya soch,
Solajakdur qaydidan xurshidi uzra soya soch.

Gulda sunbul deymu yo xurshidi uzra dudi oh,
Buncha ham zebo dusharmu orazi ra'noya soch.

To sabo gazdurmasin har yon sirishkim durlarin,
Qatra-qatra xoki poyi ul malak siymoya soch.

Rashkidin solgʻil chaman sunbullarina toblar,
Bogʻa kirdukcha birohib²² orazi zeboya soch.

Shom chekmish pardaya xurshidi tobon bir tuni,
Xondakim subhi banogoʻshina solmish soya soch.

To sirishking obi hayvon oʻla, ey koʻz mardumi,
Ashkingi gavharlarin ul laʻli ruhafzoya soch.

Xon boshimda moʻyi joʻlidam erur asbobi joh,
Chatri shohitak²³ oʻla Majnuni beparvoya soch.

Mushafi ruxsori yoqut [ul] labingni yozolar,
Dambadam jon rishtasini bir oni sherozalar.

Oy-u kun ermas falakda orazing timsolidur,
Charx naqqoshi jononingda olur andozalar.

Qoʻrqaramkim, yonmasun oʻdlara barqi ohdin,
Ishqi sahrosi guzargohida qurdum gozalar²⁴.

Ey bahori, nozi aksi orazingdurkim mudom,
Suv olib gulzor aro gullar jamolin tozalar.

Xoni yoring dogʻi savdosidadur xoligakim,
Soldi Majnundek balo vodiysida ovozarlar.

Ul malohat sham'idin joni dilim giryonalar,
Sachrag'an uchqunlaridur har taraf parvonalar.

Tebratib jon rishtasi holim parishon aylayin,
Turra marg'ulin dog'itg'on jilvasi mastonalar.

Ko'z yoshimdan sangdil ar ko'ngili moyil o'lmamish,
Kim egilmaz²⁸ sel ila toshdon o'lan koshonalar.

Baski har soat xayoli husning etmishdir maqom,
Chashmi hayronimda dutmush ishq ko'zguxonalar.

Tun abiromiz²⁹ esib ko'nglumi chok etdi nasim,
Angladim mashshota zulfi mushkiborin shonalar.

Ko'ngluma har dam jafodur dilrabolar etdug'i,
Jonima rahm aylab etmazlar vafo jononalar.

Xoni g'am ishqin deyub Farhod-u Majnun qissasin,
Demagim jon so'z emaz bu dardsiz afsonalar.

Ey nasimi subh, etdukda aningla yorlig',
Bir siporish qilki, bandin qilmag'ay bezorlig'.

Dayr esa mushkul nadur olamda ishq atvoridin,
So'ylaram, ey gul, judolig'dur banga dushvorlig'.

Chun ziloli la'li nobingdin gar ichmish jur'ai⁵⁴,
Kofiri ishqing o'lam gar istaram hushyorlig'.

Muncha afsunim parivash yora afsun aylamaz,
Kim banim-la qilmamishdur bir nafas dildorlig'.

Yo'x demakda bir g'araz erdi dahoning durjini,
Yetdi shimdi bu sababdan Xona yo'x davvorlig'. [5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Qayumov A. «Qo‘qon adabiy muhiti (XVII – XIX asrlar)», T.: «Mumtoz so‘z» nashriyoti, 2010. [5]
2. Jo‘raboyev O. “Xon adabiy merosiga doir” /O‘zbek tili va adbiyoti junali/2017-yil 6-son. [125]
3. Boltaboyev H. “Mohlaroyim Nodira va Xurshidbonu notavon: ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik sirlari”/O‘zMU xabarlar/2022- yil 1/6/1son [256]
4. Is‘hoqov Y. “So‘z san’ati so‘zligi” T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2014. [35]
5. “Devoni xon Muhammad Alixon” O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, 1808-raqamli qo‘lyozma